



Historical need and existing problems of training personnel for Islamic religious organizations in Uzbekistan during the years of independence

Yusufbek JAKHONGIROV¹

Andijan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2024
Received in revised form
15 May 2024
Accepted 15 June 2024
Available online
25 June 2024

Keywords:

religion,
Islamic religion,
mosque,
madrasah,
religious education,
religious educational
institution,
Islamic educational
institutions,
Tashkent Islamic Institute,
International Islamic
Academy.

ABSTRACT

The article, with the help of primary sources and scientific literature, analyzes the historical need for training personnel for Islamic religious organizations during the years of independence of the Republic of Uzbekistan and related problems.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss3-pp88-98>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbekistonda mustaqillik yillarida Islomiy diniy tashkilotlarga kadrlar tayyorlashning tarixiy zarurati va mavjud muammolar

Kalit so'zlar:

din,
islom dini,
masjid,
madrasa,
diniy ta'lim,
diniy ta'lim muassasasi,
islomiy ta'lim muassasalari,
Toshkent islom instituti,
Xalqaro islom Akademiyasi.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida islomiy diniy tashkilotlarga kadrlar tayyorlashning tarixiy zarurati va unda mavjud bo'lgan muammolarga doir masalalar birlamchi manbalar va ilmiy adabiyotlardagi materiallar yordamida tahlil qilingan.

¹ Associate Professor, Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD), Department of Theory of Civil Society, Andijan State University.

Историческая необходимость и существующие проблемы подготовки кадров для Исламских религиозных организаций в Узбекистане в годы независимости

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Религия,
исламская религия,
мечеть,
медресе,
религиозное образование,
религиозное
образовательное
учреждение,
исламские учебные
заведения,
Ташкентский исламский
институт,
Международная
исламская академия.

В статье с помощью первоисточников и материалов научной литературы анализируется историческая необходимость подготовки кадров для исламских религиозных организаций в годы независимости Республики Узбекистан и связанные с этим проблемы.

KIRISH

Islom dini va diniy ta'lim tarbiya jamiyat taraqqiyoti hamda inson qadr-qimmati uning shaxs sifatida ijtimoiylashuvida muhim rol o'ynagan. Islom dini ko'rsatmalarini odamlar orasida keng yoyish va tushuntirishda din sohasida ma'lum bir malakaga ega bo'lgan olimlar, ulamolar, din peshvolariga murojaat qilingan. Maqolada mustaqillik yillarida islom diniy tashkilotlarini kadrlar bilan ta'minlash masalasi tadqiq etilgan bo'lib, aholining 94% islom diniga e'tiqod qiladigan, tarixi esa islom sivilizatsiyasining beshigi sanalib, ko'plab ulamolarni yetishtirgan O'zbekiston uchun ham zarurat sanalganligi, shuningdek, mazkur masalalardagi mavjud muammolar tadqiq etilgan.

ASOSIY QISM

Ma'lumki, ushbu vazifalarni amalga oshirishda respublikadagi masjidlar, madrasalar muhim o'rin tutgani holda, bu maskanlar diniy va dunyoviy fanlardan yoshlarga ilm, bilim, ta'lim-tarbiya beruvchi, odob o'rgatuvchi muassasa hisoblangan. Islom ulamolari, din xodimlari, imom-xatiblarning olgan ilmlari esa ularning madrasa va islomiy ta'lim muassasalarida orttirilgan bilimlari sanalgan. Ilm esa xoh u diniy bo'lsin xoh u dunyoviy – insonni komillikka yetaklagan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach diniy sohada vijdon erkinligi kafolatlanib, davlat fuqarolarni e'tiqodini erkin amalga oshirish, islomiy ilmlarni egallashlariga sharoit yaratildi. Albatta, islom ilmlarining rivojlanishi, uning ravnaqi bevosita sohaning yetuk mutaxassislariga bog'liq sanalgan. Respublikada esa ushbu ishlar sovet davrida O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi (SADUM) ixtiyorida, mustaqillikni ilk yillarida Movarounnahr musulmonlari idorasi zimmasida bo'lib, 1995-yildan uning negizida tashkil etilgan O'zbekiston musulmonlari idorasi bajarib kelmoqda [1. B. 107]. Aholining diniy-ma'rifiy sohada bo'lgan ehtiyojini qondirish diniy ta'limni isloh qilish ishlari, mazkur tashkilotning asosiy vazifalaridan biriga aylandi.

Shu o'rinda Prezident Sh.Mirziyoyevning Alhamdulilloh, hammamiz musulmonmiz, buning shukronasini qilib, farzandlarimizni ham bunday ne'matning qadriga yetadigan insonlar etib tarbiyalashimiz kerak emasmi? Muhtaram imom-xatiblarimiz Alloh yo'lida xolis xizmat qilishni o'z zimmasiga olganlar. Bu ham mas'uliyat, ham ulkan sharaf. Shuning uchun sog'lom e'tiqod yo'lini targ'ib qilishni kimdan so'raymiz? Ulamolar, imom-xatiblarimizdan so'raymiz. Shu borada barchamiz kimdan ibrat olamiz? Albatta imom-xatiblarimizdan [2.B.409]. Zero shunday ekan, mamlakatda diniy kadrlar tayyorlash muassasalari, islom bilim yurtlari ulardagi ta'lim tizimi faoliyatini tarixiy jihatdan tadqiq etish bugunning dolzarb masalalaridandir.

Shu asosda islom dini tashkilotlarini malakali kadrlar bilan ta'minlash ehtiyoji mustaqillikni ilk yillaridan zarur sanalgan. Shuni alohida qayd etish lozimki, har tomonlama yetuk, diniy va dunyoviy bilimlarni o'zida mujassam etgan mutaxassislar bo'lmagan bir sharoitda aholi o'rtasida muqaddas dinni noto'g'ri talqin qilib, islom dini paydo bo'lgan davri nuqtai nazaridan tushunish, aqidaparastlik, ekstremistik kayfiyat va boshqa radikal ko'rinishdagi holatlar orqali talqin qilish mavjud bo'lgan.

Darhaqiqat, avvalo, mustaqillikni ilk yillarida mamlakatda, og'ir ijtimoiy vaziyat hukm surgan. Davlat mustaqilligi bilan birgalikda islom dinini o'rganishga keng yo'l ochilganligi, aholi o'rtasida islom dinini o'rganishga qiziqishni yanada kuchaytirdi. Zotan, "Islom ilmlari bir ummon. U faqat diniy aqidalardangina iborat bo'lmagan. Qolaversa, oliy islom o'quv yurtlarida 19–20 turdagi fandan dars o'tilib, imtihon olingan. Uzoq muddatdan buyon haqiqiy diniy ta'lim bo'lmaganidan kelib chiqqani holda surani yodlab, namoz o'qishni o'rganib olgan kishi qori aka, mulla amakiga aylanib qolgan edi" [3]. Shu bilan birgalikda ushbu intilish aholida islomni noto'g'ri talqin qilish, qishloq va mahallalarda to'liq islom ilmidan savodi bo'lmagan (chalamullalar) ni o'ziga ustoz qilib olish, yoki tengdoshlar orasida dinni boshqalardan ko'ra yaxshiroq anglaydigan insonlarni ustoz sifatida ko'rib unga ergashish holatlari ko'paygan edi. Mazkur holat esa o'z-o'zidan respublika mustaqilligi yo'lidagi siyosiy vaziyatga ham ta'sirini o'tkazmay qolmadi, Ayrim reaksion kuchlar o'zining atrofiga yosh, g'o'r, diniy savodi bo'lmagan va islomni o'rganishga qiziqib turgan, fanatik bo'lgan yoshlar orasidan islomni turli yo'llar bilan targ'ib qilish orqali niyatiga erishmoqchi bo'lgan. Natijada muqaddas islom dinini noto'g'ri talqin qilib, ekstremistik oqimlarga da'vat etishi oqibatida turli diniy oqimlarning paydo bo'lganini ham ko'rish mumkin edi. Bu esa respublikada mazkur jarayondan o'z siyosiy maqsadlariga erishishda ustalik bilan foydalanib qoluvchi kuchlarning harakatlariga ham yo'l ochib berdi.

Ikkinchidan, sovetlar davrida kommunistik mafkura tazyiqi ostida islom diniga qarshi kurash olib borilgan edi. Qolaversa, XIX asrning 20-yillari ikkinchi yarmidan boshlab, o'zbek xalqining sovetlarga qarshi kurashi nisbatan susayganligidan foydalanib, partiya va sovet organlari islom dini, soha ulamolariga qarshi kurashni avj oldirgan. Masalan, 1925-yilda respublikada "Xudosizlar uyushmasi" tashkil qilindi. Mazkur uyushmani keyinchalik 1929-yildan boshlab, "Kurashchan xudosizlar uyushmasi"ga aylantirishgan. Shu bilan birga islom diniga qarshi targ'ibot va tashviqot ishlari kuchayganligi oqibatida islom dinini o'rganishga bo'lgan faoliyat aholi o'rtasida batamom to'xtatilgan edi. Din ulamolari ta'qib ostiga olingan. Faqatgina ikkinchi jahon urushi davrida sho'rolar tuzumining diniy siyosatida qisman o'zgarishlar davri kuzatilgan. 1943-yilda Toshkentda O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlarining diniy boshqarmasi tashkil qilinib, ayrim o'quv madrasalarning faoliyatini yo'lga qo'yilishi oliy diniy kadrlarni

tayyorlashga bo'lgan jarayonning kurtak ochishiga imkon berdi. Biroq sho'rolar hukumatining islom ulamolarining qatag'on qilishi, siquvi natijasida soha rivojida o'zgarishlar o'z samarasini bermadi.

Uchinchidan, o'tgan asrda sho'ro hokimiyatining islom diniga salbiy munosabati natijasida islom diniy tashkilotlariga, tashkilot tarixiga oid kitoblar yozish, mashhur islomiy alloma, ulamolar haqida kitob yozish, chop etish ta'qiqlangan edi. Islom diniga bag'ishlab yozilgan ko'plab asarlar qattiq tanqid ostiga olinardi, bu esa o'z navbatida diniy-ma'naviy merosni unutilishiga olib keldi. Bunday vaziyatda xalqning sarosimaga tushmaslik, birodarkushlik, aholi iymon – e'tiqodidagi juz'iy farqlarni nizoga aylantirmaslikka chaqirish birgina davlat idoralari rahbarlarining ishi bo'lmay, ko'pni ko'rgan mahalla oqsoqollari, o'sha davrdagi musulmon ulamolar, islom olamida elga tanilgan imom domlalariga ham bog'liq edi. Buning uchun albatta, sohaga doir mas'uliyatli kadrlarga zarurat, ehtiyoj tug'ilishi bilan birgalikda, ular uchun munosib shart sharoit yaratish zarur edi.

To'rtinchidan, istiqlolning dastlabki yillarida din xodimlari va ulamolari o'rtasida diniy boshqarma atrofida birdamlik, yakdillik bo'lmagan. Bu o'z-o'zidan bir tomondan Markaziy Osiyo mamlakatlarini mustaqilligi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan esa mamlakatda ulamo va imom-xatiblar o'rtasida amaldagi diniy idora raisiga qarshi harakatlar hamda ulamolarning diniy idora atrofida birlashishi o'rniga turli nizo, fitnalarning avj olganligida edi.

Bu nizolar asosan shaxsan muftiy Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufni diniy boshqarma raisligidan ketishini talab qilish, uning mamlakatdagi musulmonlarni diniy e'tiqod va amallari bilan bog'liq ishlari rivojini ko'rolmaslik kabi fitnalardan iborat bo'lib, bu holatlar Toshkent masjidlaridan birida kuzatilgani tarixiy manbalardan ma'lum.

Shu vaziyatda islom ulamolari o'rtasidagi kurashlarning avj olishiga mintaqadagi musulmonlarning vakillari ham qarab turmadi. Endigina mustaqillikni qo'lga kiritgan respublikada ichki nizolarni, aynan islom ulamolarini o'rtasida sodir bo'lishini salbiy baholab ularni qo'llab-quvvatlamadilar.

Xususan, mustaqillikni ilk yillarida O'zbekistonda ekstremistik harakatning din niqobi ostida keng tus olib kirib kelishi, ularni musulmonlar o'rtasiga raxna solishi to'g'risidagi xavotirlar yuzasidan respublika hududidagi masjid qavmlari nomidan davlat boshqaruvi idoralari nomiga Muhammad Sodiq Muhammad Yusufni Diniy boshqarma boshlig'i sifatida qo'llab-quvvatlanishi, shayxga qilingan tuhmatlarni asossizligi to'g'risida turli murojaat va talabnomalar kelib tushgan [4.V.99-100]. Bunga o'xshash fikrlar respublikaning barcha hududlaridan mahalla, masjid qavmlaridan, qishloq oqsoqollaridan ko'plab musulmonlardan arizalar shaklida kelib tushgan. Ularning asosiy talablari muftiyning tashabbusi bilan respublika musulmonlari emin-erkin haj ibodatini amalga oshirayotganligi, ko'plab masjid va madrasalar ochilib, diniy ta'lim yo'lga qo'yilayotganligi, shuningdek, bu ijobiy ishlarni ko'rolmasdan musulmonlarni bo'linishlariga sabab bo'layotgan diniy ekstremistik oqimlarni tugatishda hukumat miqyosida kurashish zarurligi va davlat idoralarining bu masalada yordam qo'lini cho'zish kabi talablar bo'lgan.

Shu kabi va boshqa turli voqealar ham respublikada islom dini yo'nalishidagi tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan imomlarning shaxsi, masjid qavmiga kim boshchilik qilyapti, qaysi mazhab yo'nalishida xizmat qilmoqda, ular musulmonlar bilan qanday suhbat olib bormoqda, respublika masjidlaridagi holat, ular qaysi mablag'lar

evaziga qurilgan, madrasalardagi ahvol, u yerda diniy ta'lim qanday yo'lga qo'yilgan, qanday adabiyotlar va kimlar tomonidan o'qitilmoqda kabi ishlarni tartibga solishdan iborat bo'lgan.

Yuqoridagi omillar mamlakat mustaqilligining ilk davrlaridan boshlab diniy arkonlarni puxta biladigan kadrlar tayyorlash ishiga ehtiyojni yuzaga keltirdi.

Diniy sohada kadrlar tayyorlashda o'sha vaqtlarda diniy boshqarma raisi bo'lgan Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf boshchiligidagi keng ko'lamli ishlar yo'lga qo'yilgan. Kadrlar tayyorlashda birinchi navbatda ularni o'qitish uchun kerakli shart-sharoitlar va adabiyotlar yetishmas edi. Mazkur vazifani amalga oshirishda 1991–1993-yillarda joylarga yuborilgan xatlardan ma'lumki, og'ir bir sharoitda kadrlar tayyorlash masalasida qator xorijiy islom mamlakatlaridan yordam so'ralgan. Buni Saudiya Arabistonidagi Muxammad Bin Saud Islom universiteti mudiriga Toshkent Islom Instituti ehtiyojlari uchun talabalarni o'qitishda stipendiya ajratishga muhtojlik, institut binosini jihozlashda mablag' ajratish, arab tilini o'rganish uchun darsliklar ajratish, Toshkent shahar bojxonasi rahbari R.Pirmuhammedovga Saudiya Arabistonidan keltirilgan darsliklarni qabul qilib olishga ruxsat so'ralgani va ularni madrasalarda o'qitish uchun qo'llanma sifatida foydalanish uchun olib kelingani qayd etilgan. Shuningdek, Pokiston Islom dorilfununidan Movarounnahr Musulmonlari idorasi uchun zarur bo'lgan, xususan, idora qoshidagi bosmaxonaga keltirilgan dastgohni olish, Pokiston davlatidan kelgan madrasa talabalari uchun 4 quti diniy adabiyotni so'rash uchun murojaat qilingan va qayd etilgan xatlardan ham bilish mumkin. Bundan tashqari MMI muassisligidagi madrasalardagi talabalarni kitob va darsliklar bilan ta'minlash maqsadida Saudiya Arabistonidan 1000000 (bir million) nusxa Qur'oni Karim sovg'a qilingan [5. V. 84-91].

Ushbu xatlardan diniy idora raisi respublikada diniy ta'lim tarbiya ishini jonlantirish orqali mutaxassislar tayyorlashga astoydil harakat qilganligini ko'rish mumkin. Ushbu kitob va uskunalar xorijiy islom Respublikalaridan hadya tariqasida kelgan. Ushbu mamlakatlar mamlakatdagi islom ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarni xorijga borib o'qishlarini ham ta'minlashga yordam berganlar. Saudiya Arabistonida respublika talabalarini o'qishi uchun to'lovlarni o'z zimmalariga olishga tayyor bo'lganlar. Albatta, bu ishlar keyinchalik davlatlarning o'zaro hamkorlik, shartnoma va aloqalarni mustahkamlash orqali amalga oshirilgan. Dastlabki davrlardan Movarounnahr Musulmonlari Idorasining xalqaro xorij islom respublikalari bilan hamkorlik ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Respublikada madrasa talabalari tahsili uchun adabiyotlar yetishmas-da, biroq respublikada diniy kadrlar tayyorlash tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan deya baholangan. Chunki mamlakatda sobiq ittifoq davridan faoliyat olib borgan 2 ta madrasada va 1 ta islom oliy ilmgohida turli respublikalardan kelgan islom dini ulamolari tahsil olganlar. Shu tariqa kadrlar tayyorlash zarurati maqsadida xalqaro hamkorlik ishlari ham yo'lga qo'yilgan. Jumladan, 1993-yilda Dog'iston musulmonlari idorasining iltimosiga ko'ra musulmonlar idorasi tomonidan 400 ta haftiyak, 600 ta durusi shifohiya, 1000 ta juzu amma va bag'dodiy, 100 ta naxv darsligi yuborilgan [6. V.93].

Mustaqil O'zbekistonning birinchi muftiysi Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf faoliyati davomida asosiy e'tiborini sobiq Ittifoq musulmonlarining diniy sohadagi, ayniqsa, diniy ta'lim, ularning diniy huquqlarini tiklash yo'lidagi to'siqlarni olib tashlashga qaratgan.

1994-yilgi ma'lumotga ko'ra respublikada dinga (bevosita islom) xizmat qiluvchilarni soni 7000 (yetti ming) kishini tashkil etgan [7.V.34]. Ularning bilim darajasi turlicha bo'lgan, barchasi yuqoridagi talablarga javob bera olmagan. Bolshevikcha tuzum sharoitida dinga xizmat qiluvchi, din bilan bog'liq vazifalarda faoliyat ko'rsatuvchi malakali mutaxassislar tayyorlashga deyarli e'tibor berilmagan. Buning uchun esa albatta, din va davlat munosabatlari doirasida o'zaro mustahkam qonuniy aloqa o'rnatish zarurati vujudga kelgan.

O'zbekiston musulmonlari idorasi davlatdan ajratilgan bo'lsa-da, mazkur murakkabliklar ortidan davlatning ham diniy kadrlar tayyorlash ishiga bevosita rahbarlik, ularni o'qitish tizimini zamonaviy asosda qurish, respublikadagi barcha din vakillarini o'zaro hamjihatligini ta'minlash, dindorlarni bo'linishini oldini olish, ularning asl maqsadlari ortidagi keyingi faoliyatlarini aniqlash va ayrim diniy oqimlarni siyosiy harakatlariga chek qo'yish maqsadida 1992-yili Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etildi. Qo'mitaning qator vakolatlari doirasida islom dini tashkilotlari kadrlar bilan ta'minlash ishida, madrasalarni faoliyati bo'yicha nazorat olib borgan.

Mamlakatda 1992-yildan boshlab diniy boshqarma ruxsati asosida madrasalar ochilishi yo'lga qo'yilgan. 1994-yilgi ma'lumotga ko'ra respublikada 10 ta rasmiy ro'yxatdan o'tgan madrasa faoliyat ko'rsatgan. Ularda 2500 nafar o'g'il-qizlar ta'lim olgan. Ularga 150 mudarris din asoslaridan dars bergan. Shuningdek, norasmiy faoliyat olib borayotgan 18 ta madrasada esa 2000 ga yaqin tolib va tolibalar tahsil olganlar. Mazkur madrasalarda ta'lim berayotgan 266 nafar mudarrisdan 74 tasigina ya'ni (27.8%) gina maxsus diniy bilimga ega bo'lgan mutaxassislar hisoblangan. Bundan tashqari mamlakatning 350 dan ortiq masjidilari qoshida tashkil etilgan diniy ta'lim beruvchi guruhlarda 10000 (o'n ming) dan ortiq turli yoshdagi fuqarolar din asoslaridan boshlang'ich ma'lumot olganlar. 1994-yilgi ma'lumotga ko'ra yana 50 ga yaqin norasmiy madrasa faoliyat ko'rsatgan. Ularda diniy ta'lim bilan birgalikda ona tili va adabiyoti, chet tillari fanlari o'rgatilgan. Bundan tashqari madrasaning asosiy bilim berish vositasi kasb-hunarga o'rgatish ham bo'lgan [8.V.34].

Kadrlar tayyorlashdagi ikki tomonlama hamkorlik qilish ishlari, ya'ni O'MI va Qo'mita faoliyatidagi o'zaro yakdillik ularni tartibga solish ishida yaxshi samara sifatida ko'rilgan. Mutaxassislarni o'qitish va tarbiyalash faoliyatidagi ishlarni yo'lga qo'yishdan tashqari mamlakatda amalda diniy tashkilotlarda (islom) xizmat olib borayotgan imom domlalar, din xodimlarining malakasi, ularning o'sha davr ruhini tushuna olishi, boshqa diniy oqimlar ta'siriga tushgan-tushmaganligi, ulamolardagi bo'linish ishlari ham xavotirli tus olgan edi. Masjidlarda ishlayotgan imom-xatiblarning 15 foizigina diniy o'quv yurtlarini tamomlagan mutaxassislar bo'lgan [9.V.13]. Bundan ko'rinadiki, islomiy ta'lim muassasalarini tamomlaganlarni ko'pchiligi diniy bilimni o'zicha o'rgangan shaxslar bo'lgan.

Yana bir muammo masjidlar tizimida edi. O'zbekistonda 1994-yil I chorak ma'lumotiga ko'ra 5200 (besh ming)dan ortiq masjidlar bo'lsa [10.V.35], bu yerda xizmatda bo'lib turgan imom-xatiblar masalasida muammolar bo'lgan. Imom-xatiblarning bilimi, tajribasi, boshqa oqimlarga nisbatan munosabati, O'MI atrofidagi umumiy yakdillikning yo'qligi diniy tashkilot (islom) xodimlarini attestatsiyadan o'tkazishni talab etgan. Shu maqsadda qator tadbirlar ishlab chiqilib, Qo'mita O'MI va uning joylardagi vakilliklari bilan hamkorlikda attestatsiyadan o'tkazish ishlari boshlab yuborilgan.

O'MI ning maxsus farmoni bilan o'tkazilgan ushbu attestatsiya natijalariga ko'ra Toshkent viloyatidan Qibray va Yangi yo'l tumanidagi 2 ta imom xatib egallab turgan lavozimiga nomunosib topilgan. Shuningdek, Namangan viloyati bo'yicha ko'rsatilgan 15 ta masjiddan Namangan shahridagi "Otavalixon to'ra", Chortoq tumanidagi "Xazrati Bilol" masjidlarida xanafiylikdan chekinganligi uchun imomlar almashtirilganligi, "Islom nuri", "Abu xanifa", "Karimjon qori", "Xasti xizir", "Abdurahim mulla" va boshqa masjid imomlari xanafiylilik yo'lida e'tiqod qilib faoliyatida davom etishi bayon qilingan. Bundan tashqari Sirdaryo viloyati Baxt shahridagi "Xazrati Umar" masjidi imomi va Jizzax viloyatidagi imomlarda turli noqonuniy firqalarga xos illatlar sezilmagan.

Andijon viloyati Buloqboshi tumanidagi "Navvoq", "Zarg'aldoq", "Abu Bakr Siddiq" masjidlari qurilishiga noqonuniy oqim tarafdorlari mablag'lari hisobidan mablag' olingan bo'lsa-da, mazkur imom xatiblar Imomi A'zam mazhabida bo'lganlar. Asaka tumanidagi "Tojiboy Xalfa", "Do'rmon", "Abdulhay Maxsum", "Imom Buxoriy", Oltinko'l tumanidagi "Jaloliddin", "Oro", Shahrixon tumanidagi "Bo'ston", "Jiyda", "Arab", Izboskan tumanidagi "To'rtko'l" masjidi imomlari faoliyatlarida oldin chalkashliklar bo'lsa-da, ular keyinchalik to'g'ri yo'lga tushib olganlar. Yoki Samarqand viloyati Bulung'ur shahridagi "Amir xamza", Urgut tumanidagi "Chorchinor" masjidi imomlari Imomi A'zam mazhabidan chekinmaganliklari qayd etilgan [11.V.18-19].

Ushbu ma'lumot respublika masjidlarida imomat vazifasida xizmat qilib turgan va joylardan turli arizalar kelib tushganligini inobatga olgan holda faoliyati o'rganilib attestatsiya qilingan. Ayrim masjid imomlari Andijon va Qo'qon shahridagi turli noqonuniy firqalarning in qurgan markazlariga kelgan mablag'lar hisobidan joylardagi yangi masjid qurilishi va ularga nisbatan xayrixoh bo'lishi respublikaning diniy kadrlarni yetishtirish siyosatiga zid sanalgan. Chunki aholi namozxonlari o'rtasida "bu masjidga chiqib bo'lmaydi, u o'zimizni masjid unga chiqsa bo'ladi yoki bunga chiqish mumkin emas" qabilidagi bo'linishlar ro'y berishi mamlakatdagi musulmonlar o'rtasida nizo va tarafkashliklarni urchishiga ham sabab bo'lishi mumkin edi. Mazkur holatlarni tartibga solishni yagona yo'li mamlakatda diniy ta'limni isloh qilish va amaldagi din xodimlari faoliyatini o'rganib, to'liq attestatsiyadan o'tkazishdan iborat bo'lgan.

1998-yil 5-maygacha respublikada o'rganilgan masjidlarning umumiy soni 4030 ta bo'lgani holda mazkur masjidlarda xizmatda turgan imomlar soni 3892 nafarni tashkil etgan [12.V.39]. Ushbu imomlarning aksariyati diniy sohada ma'lum bir savodi bo'lsa-da, afsuski, ularni diniy ilm olganligi to'g'risida hujjati bo'lmagan. Zero, imomlarni fuqarolarga diniy ma'rifat yo'lida xizmat qilishi inobatga olinib, ularning aholiga din aqidalarini yetkazishida yuksak mas'uliyat talab qilinar edi.

Ta'kidlash lozimki, dastlabki yillarda respublikadagi bunday muassasalar soni yildan-yilga ortib borgan. Biroq o'tkazilgan attestatsiya natijalari va boshqa omillar sabab, 1998 –1999-yillarda respublikada ro'yxatdan o'tgan masjidlar soni dastlab 1949 tani tashkil etgan bo'lsa, 1999-yil aprel oyigacha 1355 ta masjidni to'liq ro'yxati shakllantirilib, ushbu 1355 masjid imomlari o'z lavozimiga loyiq deb topilgan. Ulardan diniy sohada oliy ma'lumotlilar soni 230 tani tashkil etgan. Diniy o'rta-maxsuslari esa 485 tani, qolgan 640 tasi esa diniy sohadagi faoliyati va tajribasiga qarab musulmonlar idorasi guvohnomasiga ega bo'lgan. Yosh jihatdan esa 60 yoshgacha imomlar 1147 tani, 60-70 yoshdagilar 152 tani, 70 yoshdan oshganlar esa 56 tani tashkil etgan [13.V.39].

Shuningdek, 1991–1997-yillarda mamlakatda oliy diniy ma'lumotga ega bo'lgan imomlar 4000 ta masjid hisobi bilan 1.6 foizni tashkil etib, o'rta maxsus diniy ma'lumotga ega imomlar esa 2.7 foiz bo'lgan. Yosh jihatdan 60 yoshdan oshgan imomlar 47.5 foizdan

iborat edi [14.B. 44]. Asosiy e'tibor xodimlarning bilim darajasini oshirishga qaratilgan. Buning natijasida, 1997–2000-yillar ichida Toshkent islom universiteti (TIU) da imomlar uchun tashkil etilgan doimiy o'quv-malaka oshirish kurslari, o'tkazilgan attestatsiya va rotatsiya natijalariga ko'ra oliy diniy ma'lumotga ega bo'lgan imomlar 22.5 foizga, o'rta maxsus ta'limga ega imomlar nisbati 47.5 foizga yetkazilgan, yoshi 60 dan yuqori imomlar miqdori 10 foizga keltirilgan [15.V.44]. Uch yil ichida bunday miqdorga kelganligini asosiy sabablaridan biri masjidlarni qisqarishi ham bo'lgan.

Bundan ko'rinadiki, mamlakatda islom dini sohasida ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish uchun diniy sohada malakali kadrlarga bo'lgan talabning yuqoriligi va ularni o'qitishda tajriba orttirish tobora ayon bo'lib borgan. Ayniqsa, yosh imomlarni o'qitish, tajribali kadrlardan foydalanish, ularni boshqa masjidlarga yuborish, islom mamlakatlarini sohada amalga oshirayotgan imkoniyatlari bilan tanishish, ulardan tajriba olish zarurati vujudga kelib, respublikada mazkur ishlar yo'lga qo'yildi.

Yana bir muhim jihat kadrlarni joyiga qo'yishni zaruriy sharti sifatida, avvalo, madrasalarni isloh qilish bo'lsa, ikkinchidan amaldagi masjidlarda faoliyat yuritayotgan imom-xatiblarning sharoitlarini yaxshilash, ularni moddiy tomondan qo'llab-quvvatlashdan iborat edi. Shuningdek, masjidlarni umumiy holatini o'rganish va imom-xatiblar bilan o'tkazilgan suhbatlar natijasida kamchiliklar ma'lum bo'lib borgan.

Islomiy ta'lim muassasalarini bitirgan bitiruvchilarni masjidlarga yuborib, kuchli mutaxassislari jalb qilinishi inobatga olinsa, bunday holatda islomiy ta'lim muassasalarining o'zida ham kadr masalasi ayanchli edi. Chunki qator obyektiv sabablar mavjud bo'lib, islomiy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini aytilgan joyga xizmat vazifasiga bormasligi, zamonaviy dars xonalar bilan ta'min etish ishlari, muassasalarni kompyuter va jihozlar bilan ta'minlash, madrasa mudarrislarining oylik maoshlaridagi muammolar barchasi mablag' bilan bog'liq bo'lgan.

Shuningdek, Imom xatiblarning moddiy jihatdan ham qo'llab-quvvatlanishida ham muammolar bo'lgan. Masalan, respublikada faoliyat olib borgan imomlarning 30 foizi maoshsiz, 55 foiz imomlar 2001–2002-yillarda 1500-2000 so'm, 2002–2003-yillarda 3500-4000 so'm oylikka ishlaganlar. Birgina Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan 207 ta masjiddan 150 ta imom maosh olmasdan ishlagan [16.B.253]. Bunga yechim sifatida yo'llanma bilan tayin etilgan imomlarga mahalliy imkoniyatlardan foydalangunga qadar, O'MI tomonidan hech bo'lmaganda uch-to'rt oy oylik maosh bilan ta'minlash masalasi taklifi berilgan. Chunki ayrim imomlar aynan mablag' yo'qligi sababli va moddiy imkoniyatidan kelib chiqib, o'ziga tayinlangan masjidga ishga bormagan. O'MI va diniy tashkilotlar, ziyoratgohlar, imom-xatiblarni mablag' bilan ta'minlash, ularning moliyaviy faoliyatini nazorat qilish "muhtasiblik" bo'limining asosiy vazifasi bo'lgan. Imom-xatiblarni maoshlarini vaqtida berish maqsadida viloyat muhtasiblari hisobot berib borganlar. Har bir masjidlarni ro'yxatdan o'tkazishda bankda schyot raqami ochilganligiga ham e'tibor qaratilgan va shu orqali mablag'lar nazorati yo'lga qo'yilgan. Maoshlar masalasidagi muammolarning muhim sababi O'MI tizimi ishlab chiqarish orqali foyda ko'rmaydigan jamoat tashkiloti sifatida faqat xayr-ehson sifatida faoliyat olib borganligi edi. Biroq gaz, elektr, suv, issiqlik kabi to'lovlar ishlab chiqarish korxonalari darajasida olingan. Tushgan mablag'larning aksariyati esa kommunal xizmat va turli to'lovlarga sarflangan. Bu holatlar ham bartaraf etilib, madrasa va masjidlarning qarzdorligi yopilgan.

Attestatsiya guvohnomasi bilan xizmat qilib turgan imomlarni rasmiy madrasalarni bitirgan, maxsus diplomga ega bo'lgan imomlar bilan almashtirishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Madrasalarda esa xuddi shunday islohot o'tkazish, ularni professional kadrlar bilan ta'minlash, ularni o'qitish tizimi kutubxona va boshqa moddiy ta'minotga muhtojligi masalalari kabi muammolar ortidan "bir viloyatda bir madrasa" tartibi joriy qilingan.

Respublikada 2008-yilgi ma'lumot bo'yicha islom diniy tashkilotlari O'MI, Qoraqalpog'iston musulmonlari qoziyoti, TII, 9 ta madrasa, 2037 ta masjid faoliyat yuritgan. Masjidlarning aksariyati Farg'ona vodiysi viloyatlariga: Andijonda 181 ta, Namanganda 186 ta, Farg'ona viloyatida 198 ta, shuningdek, Toshkent viloyatida 222 ta, Samarqandda 285 ta, Qashqadaryoda 182 ta va Jizzaxda 171 taga to'g'ri kelgan [17.V.35]. Respublika hududida faoliyat olib borgan masjidlar va shuningdek, ularning imom-xatiblari fuqarolarning diniy ehtiyojlarini qondirgan. Shunga qaramay aholida masjidlarga bo'lgan ehtiyoj yuqori edi. Shuning uchun arxiv hujjatlarda tadqiq etilishicha 2005–2015-yillar oralig'ida Toshkent shahri va Farg'ona viloyatlarining chegara hududlaridan deyarli respublikaning turli hududlaridan yangi masjidlar ochish bo'yicha doimiy murojaatlar kelib tushgan.

2010-yilga kelib respublika masjidlarida faoliyat yuritayotgan imomlardan 1579 tasi maxsus oliy va o'rta diniy ta'lim olgan imomlar bo'lgan. Qolgan imomlar mustaqil ravishda diniy savod chiqarib O'MI hay'ati qarori bilan imomlikka loyiq ko'rilgan fuqarolar bo'lgan [18.V.37]. Mazkur imomlarni maxsus diniy ta'limot olgan yosh kadrlar bilan almashtirish jarayoni doimiy tarzda amalga oshirib kelindi. Lekin bu jarayonlarda fuqarolarning xohish irodasidan kelib chiqib, ko'p yillardan beri namozxonlarga bosh bo'lib kelayotgan, xalq orasida obro' e'tibor qozongan imomlarni talabalikdan chiqqan yosh mutaxassis bilan almashtirish masalasi ham muammo sanalgan. Bunday hollarda yoshlarni o'sha imomlarga ma'lum muddatga, tajribaga ega bo'lgunga qadar noiblikka berib, namozxonlarni ularga ko'niktirib borish maqsadga muvofiq deb topilgan.

Umuman olganda, mamlakatda mustaqillikni ilk yillarida yangi madrasalar va masjidlarini ochilishi ommaviy tus oldi. 1998–1999-yillarda esa din niqobi ostidagi ekstremistik guruhlarining faollashuvi va radikallashuvi ro'y berdi. Mazkur jarayonlardan so'ng islom dini tashkilotlari xodimlari, masjid imomlarini malakasini oshirish tizimi takomillashtirildi. Madrasalar qariyb 50 tadan 10 taga tushirildi. Har bir viloyatda bir madrasa tizimi joriy etildi. Din xodimlarini tayyorlash ishi xavotirli tus olishi ro'y berdi. 2016-yildan boshlab boshqa sohalar rivojidadagi ulkan siljishlar qatori diniy-ma'rifiy sohada tub ijobiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Diniy tashkilotlarni malakali kadrlar bilan ta'minlash ishi yangi bosqichga ko'tarildi.

XULOSA

Mustaqillik yillarida islom dini tashkilotlariga kadrlar tayyorlash masalasi 3 bosqichga bo'lib o'rganildi. Buni esa albatta mustaqillik yillarida qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun bilan izohlash mumkin. Birinchi bosqich 1991–1998-yillarda, islom dini tashkilotlariga mutaxassis tayyorlash zarurati va mavjud muammolar tahlili shuni ko'rsatadiki, islom ta'limining an'anaviy hamda eskicha radikal tizimi jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning rivojlanish yo'liga to'siq hisoblendi. Shu ma'noda birinchi ma'muriyat davrida Respublikada ushbu yo'nalishdagi muammolarni kengayib ketishining oldi olindi. Buning uchun Vazirlar Mahkamasi

huzurida tashkil etilgan Din ishlari bo'yicha Qo'mita va O'zbekiston musulmonlari idorasi hamkorligining yo'lga qo'yilishi yaxshi samara sifatida baholandi. Ularning yakdilligi ortida sohadagi professional kadrlarga ehtiyoj vaqtida aniqlanib, diniy ta'lim tizimiga an'anaviy islom ta'lim shaklidan voz kechilib, ta'limda zamonaviy usullar, dunyoviy va diniy fanlar uyg'unligi yutuqlaridan foydalanish natijasida ma'rifiy islomni targ'ib etish orqali taraqqiyotga erishish yo'li tanlandi.

1999–2016-yillar sohada professional mutaxassis kadrlar tayyorlashning huquqiy bazasi takomillashdi. O'rta-maxsus islom diniy o'quv yurtlarida o'qishga fuqarolar qonunchilikka muvofiq umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim yoki professional ta'lim olganidan keyin qabul qilinishi qoidasi mustahkamlandi. Mutaxassislarni tayyorlashda diniy ta'limdan oliy ta'limning keyingi bosqichiga qamrab olishdagi nomutanosibliklarga barham berildi.

2016–2021-yillar diniy sohada kadrlar tayyorlash modelining yangi bosqichiga erishildi. Diniy ta'lim – tarbiyaning uzluksizligi ta'minlandi, yangi oliy diniy ta'lim muassasalari ochildi. Imom Termiziy, Imom Buxoriy Xalqaro ilmiy markazlari, islom dini sohalariga oid ilmiy maktablar faoliyati yo'lga qo'yildi. Toshkent islom universiteti Xalqaro islom akademiyasiga aylantirildi. Xalqaro islom sivilizatsiyasi markazi bunyod qilinishiga erishildi. Diniy kadrlarning malakasini oshirish tizimi takomillashdi. Diniy ta'limning 5 ta bosqichli yangi modeli amaliyotga joriy etildi. Birinchi bosqich: o'rta diniy ta'lim bosqichi – 4 yil, mutaxassislik: imom, imom noibi; Ikkinchi bosqich: oliy diniy ta'lim bosqichi – 4 yil, mutaxassislik: imom, pedagog-o'qituvchi, soha mutaxassisi; Uchinchi bosqich magistratura bosqichi 2 – yil, mutaxassislik: boshqaruv apparati xodimi, pedagog o'qituvchi; To'rtinchi bosqich: tayanch doktorantura (PhD) bosqichi 3 – yil, mutaxassislik: ilmiy xodim, islomshunos, ilohiyotchi; Beshinchi bosqich: doktorantura (DSc) bosqichi – 3 yil, mutaxassislik: ilohiyotchi olimlarni tayyorlash ko'zda tutildi. Ushbu tizimni joriy qilish orqali respublikada professional, diniy fanlarni chuqur o'zlashtirgan, zamonaviy tahdidlarga qarshi tura oladigan malakali diniy xodimlar, imom xatiblar tayyorlanishiga erishilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh. Sirojiddinov Bag'rikenglik dinlarning asosi: Toshent-2010 – “TIU” nashriyot-matbaa birlashmasi, B-107.
2. Sh.M. Mirziyoyev Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021.- 409 b.
3. Ziyouz.uz: Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning: «Iymon va e'tiqod insonga yo'ldosh» nomli Muloqot jurnali ijodkorlarining savollariga javoblari «Muloqot» oynomasi, 1991 yil, 1-son.
4. O'zRPAA (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi) 975-jamg'arma, 19-ro'yxat, 103-yig'ma jild, 99-100 varaq
5. O'zbekiston Milliy arxivi M-152-jamg'arma, 1-ro'yxat, 19-yig'majild, 84-100 varaqlar.
6. O'zbekiston Milliy arxivi M-152-jamg'arma, 1-ro'yxat, 19-yig'majild, 93-varaq.
7. O'zRPAA 975-jamg'arma, 20-ro'yxat, 81-yig'ma jild, 34-varaq.
8. O'zRPAA 975-jamg'arma, 20-ro'yxat, 81-yig'ma jild, 34-varaq.
9. O'zRPAA 975-jamg'arma, 20-ro'yxat, 81-yig'ma jild, 35-varaq.
10. O'zRPAA 975-jamg'arma, 20-ro'yxat, 81-yig'ma jild, 35-varaq.

11. O'zbekiston Milliy arxivi 37-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1501-yig'majild, 18-19-varaqlar
12. O'zRPAA 975-jamg'arma, 26-ro'yxat, 539-yig'ma jild, 39-varaq.
13. O'zRPAA 975-jamg'arma, 26-ro'yxat, 539-yig'ma jild, 39-varaq.
14. O'zbekiston Milliy arxivi 37-jamg'arma, 1-ro'yxat, 8030-yig'majild, 44-varaq.
15. O'zbekiston Milliy arxivi 37-jamg'arma, 1-ro'yxat, 8030-yig'majild, 44-varaq.
16. O'zPAA 975-jamg'arma, 30-ro'yxat, 155-yig'majild, 253-varaq.
17. O'zPAA 975-jamg'arma, 30-ro'yxat, 1000-yig'majild, 35-varaq.
18. O'zPAA 975-jamg'arma, 30-ro'yxat, 1000-yig'majild, 357-varaq.